

UDC: 349.6

## FERMER XO'JALIKLARINING SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHASIDA EKOLOGIK NAZORATNING HUQUQIY AHAMIYATI

**Shofiyev Zoir Shoniyofovich,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi  
ORCID: 0000-0001-8838-3891  
e-mail: zoirshofiev.72@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada fermer xo'jaliklari tomonidan suv resurslaridan oqilona foydalanish sohasidagi davlat va jamoat ekologik nazoratining mazmuni va huquqiy ahamiyati o'r ganilgan. Muallif ekologiya nazoratini takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari muhim ahmiyat kasb etishini ko'rsatib o'tgan. Shu ma'noda ekologik nazorat tabiatdan oqilona foydalanish va atrof-muhitga zararli ta'sirlarni kamaytirishni ta'minlashga qaratilgan. Fermer xo'jaliklarining suv va suv resurslaridan foydalanish hamda uni muhofaza qilish ustidan mahalliy davlat hokimiyati organlari, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmuyi ustidan nazorat qilish inspeksiyasi, Suv xo'jaliqi vazirligi qonunchilikda belgilangan tartibda davlat nazoratini amalga oshirishi ilgari surilgan. Bunda fermer xo'jaliklarining suv resurslaridan foydalanish sohasida ekologik nazoratning davlat va jamoat ekologik nazorat turlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, MDH davlatlari olimlari fermer xo'jaliklarining suv resurslaridan foydalanish sohasida ekologik nazoratning taklif va tavsiyalari bayon etilgan. Muallif ushbu maqolada "ekologik nazorat to'g'risida" hamda "jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonunlarda fermer xo'jaliklarining suv resurslaridan foydalanish sohasida ekologik va jamoat nazoratining o'rnnini belgilab bergen.

**Kalit so'zlar:** fermer xo'jaliqi, suv resurslari, dehqon xo'jaliqi, suv iste'molchilari, tabiat obyektlari, suvdan foydalanuvchilar, davlat nazorati, ekologik nazorat, jamoat nazorati.

### ПРАВОВОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ В СФЕРЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ ФЕРМЕРСКИМИ ХОЗЯЙСТВАМИ

**Шофиев Зоир Шониёзович,**  
самостоятельный соискатель  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье исследуются содержание и правовое значение государственного и общественного экологического контроля в области рационального использования водных ресурсов фермерскими хозяйствами. Автор подчеркивает значение указов и постановлений Президента Республики Узбекистан в совершенствовании экологического контроля. В этом смысле экологический контроль был направлен на обеспечение рационального природопользования и снижение вредного воздействия на окружающую среду. Государственный контроль за использованием и охраной воды и водных ресурсов фермерских хозяйств должны осуществлять органы местного самоуправления, Государственный комитет Республики Узбекистан по экологии и охране окружающей среды, Инспекция по контролю за агропромышленным комплексом при Кабинете Министров Республики Узбекистан,

Министерство водного хозяйства Республики Узбекистан. Описаны виды государственного и общественного экологического контроля в области водопользования фермерскими хозяйствами. Также представлены предложения и рекомендации по экологическому контролю в области водопользования фермерскими хозяйствами ученых из стран СНГ. В данной статье автор определяет роль эколого-общественного контроля за использованием водных ресурсов фермерскими хозяйствами в соответствии с законами «Об экологическом контроле» и «Об общественном контроле».

**Ключевые слова:** фермерское хозяйство, водные ресурсы, дехканское хозяйство, водоснабжение, природные объекты, гидроэнергетика, государственный контроль, экологический контроль, общественный контроль.

## LEGAL IMPORTANCE OF ENVIRONMENTAL CONTROL IN THE FIELD OF WATER RESOURCES OF FARMS

**Shofiev Zoir Shoniyozovich,**

Independent Researcher  
of the Tashkent State University of Law

**Abstract.** This article examines the content and legal significance of state and public environmental control in the field of rational use of water resources by farms. The author emphasizes the importance of decrees and resolutions of the President of the Republic of Uzbekistan in improving environmental control. In this sense, environmental control has focused on ensuring the rational use of nature and the harmful effects on the environment. State control over the use and protection of water and water resources of farms should be carried out by local authorities, the State Committee for Ecology and Environmental Protection, the Inspectorate for Control over the Agro-Industrial Complex under the Cabinet of Ministers, the Ministry of Water Resources. It describes the types of state and public environmental control in the field of water use by farms. Scientists from the CIS countries also presented proposals and recommendations for environmental control in the field of water use by farms. In this article, the author defines the role of environmental and public control in the use of water resources by farms in the laws "On environmental control" and "On public control."

**Keywords:** farming, water resources, agriculture, water consumers, natural objects, water users, state control, environmental control, public control.

### Kirish

O'zbekiston tabiiy boyliklari xalqimizning milliy boyligi bo'lib, u insonlarning turmush farovonligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosini tashkil etadi. Yuridik manbalarda nazorat davlatda qonuniylik va huquqiy taribotni ta'minlashning asosiy usuli, boshqaruvning muhim funksiyasi, davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlash vositasi sifatida ta'riflanadi [1]. Yuridik manbalarda "nazorat" tushunchasining ekologiyaga bog'langanligini "ekologik nazorat", "davlat ekologiya nazorati", "jamoat ekologiya nazorati" va boshqa shu kabi so'z birikmalari bilan ifodalanganini uchratish mumkin [2].

O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 27-dekabrdagi "Ekologik nazorat to'g'risida"gi O'RQ 363-sonli Qonunining 3-moddasiga ko'ra, "ekologik nazorat atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilonna foydalanish sohasidagi qonunchilik talablarini buzilishining oldini olish, uni aniqlash va unga chek qo'yish, tabiatni muhofaza qilish faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va jamoatchilik chora-tadbirlari tizimidir". Shuningdek, ekologik nazorat tabiatdan oqilonna foydalanishni ta'minlash va atrof-muhitni zararli ta'sirlardan muhofaza qilishning muhim huquqiy chorasi, davlat boshqaruvi va ekologik huquqqa

doir huquqiy institutlar funksiyasi sanaladi. Atrof-muhitni muhofaza qilish ishida ekologik nazorat ahamiyatiga tayangan holda, uni muhim huquqiy chora sifatida baho-lash mumkin.

Ekologik nazorat atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash qoida-talablarining barcha vazirlik, davlat qo'mitalari va idoralari, korxonalar, tashkilotlar, muassasa, mansabdar va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini tekshirish, tabiiy muhit holatini o'rganish va kuzatish, chora-tadbirlarni qo'llash bilan bog'liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlar yig'indisini o'z ichiga oladi.

Ekologik nazorat – korxona, muassasa, tashkilotlar, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralari va fuqarolar tomonidan *atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha talablarga rioya etilishini tekshirish, atrof tabiiy muhit holatini o'rganish va monitoringini yuritish, ekologik ekspertiza o'tkazish, shuningdek, ushbu sohadan boshqa tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirishdan iborat.*

### Material va metodlar

Ushbu maqola doirasida tarixiy, analitik-tahlil, qiyosiy, analogiya, tizimli-funksional, modellashtirish metodlaridan foydalanilgan.

### Tadqiqot natijalari

Ekoliya nazoratini takomillashtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qaror asosida ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi huquqbazarliklar profilaktikasi va ularga qarshi kurashish tizimini yangi darajaga ko'tarish maqsadida "Ekologik patrol" ishslash tizimi joriy etildi.

Unga ko'ra, ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligi xizmati va Milliy gvardiyaning patrullikka jalb etilgan bo'linmalarining ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbazarliklarga qarshi kurashish bo'yicha vakolatlari kengaytirildi hamda ekoliya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi qonunchilik talablari ijrosi so'zsiz ta'minlanishini nazorat qilishda ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlaring ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya bo'linmalarini bilan yaqindan hamkorligini o'rnatish hamda qo'shma profilaktik tadbirlarni o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Ekoliya nazoratining davlat, idoraviy, ishlab chiqarish va jamoat ekologik nazorati kabi turlari mavjud bo'lib, fermer xo'jaliklarning suv resurslaridan foydalanish sohasida ekologik nazoratning davlat va jamoat ekologik nazorati turlari ko'proq mos keladi [3].

Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan mahalliy davlat hokimiyati organlari, Ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi; Vazirlar Mahkamasи huzuridagi Agrosanoat majmuyi ustidan nazorat qilish inspeksiysi, Suv xo'jaligi vazirligi qonunchilikda belgilangan tartibda davlat nazoratini amalga oshiradi.

B.V. Yerofeyev ta'kidlaganidek, "suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlashda ulardan foydalanish, suvni ifloslanish, qurib qolish va sho'rlanishdan muhofaza qilish, unga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish va bartaraf etish ustidan davlat nazorati muhim ahamiyat kasb etadi" [4].

V.A. Doljenkoning ta'kidlashicha, "suv obyektlaridan foydalanish va muhofaza qilish ustidan nazorat vakolatli davlat, mahalliy organlar va jamoat tashkilotlarining suvdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish, suvdan foydalanish va suv qonunchiligidan o'rnatilgan boshqa qoidalarga rioya etilishi ustidan nazoratni tashkil etishga yo'naltirilgan faoliyatidan iborat" [5].

O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni 7-moddasiga asosan, mahalliy davlat hokimi-yati organlari suv obyektlari holatini hisobga olib borish va ularga baho berish, suvlardan foydalanilishi va ularning muhofaza qilinishi, belgilangan suv olish limitlariga rioya etilishi, suvdan foydalanuvchilarning suvdan foydalanish hisobini yuritishlari ustidan nazorat qilib boradi.

Shu bilan birga, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunda suvdan foydalanish, uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar vakillarini o'z suv xo'jaligi obyektlariga belgilangan tartibda kiritishi hamda ularga zarur axborot taqdim etish suvdan foydalanuvchilar va iste'molchilarning majburiyatlaridan biri sifatida belgilangan (35- va 35<sup>1</sup>-moddalar).

"Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"-gi Qonunda qishloq xo'jaligi ekinlarini oqo-va suvlar bilan sug'orish davlat sanitariya nazorati organlari bilan kelishilgan holda, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlarining ruxsati bilan belgilangan tartibda amalga oshirilishi nazarda tutilgan (51-modda).

Ma'lumki, mamlakatimizda davlat sanitariya nazoratini Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati amalga oshiradi. Bunda mazkur tashkilot ushbu sohasida davlat nazoratini amalga oshirishini inobatga olib, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasini suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini amalga oshiruvchi organlar ro'yxatini Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati bilan to'ldirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida suvni muhofaza qilish va ulardan foydalanishda qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan

davlat ekologik nazoratini o'rnatish qo'mita-ning yangilangan asosiy vazifalaridan biri etib belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-yanvardagi 29-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mita-ni to'g'risidagi nizomga ko'ra, qo'mita suv resurslaridan foydalanish, suvdan foydalanishning belgilangan me'yorlari, qoidalari va tartibotiga rioya etish, yer usti va yer osti suvlarini ifloslanish, bulg'anish va qurib qolishdan muhofaza qilish, shuningdek, suv obyektlarining qirg'oq bo'yalarida (zonalarida) suvni muhofaza qilish chora-tadbirlarini bajarish ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 573-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi to'g'risidagi nizomga muvofiq, vazirlik suvdan foydalanish va elektr energiyasi iste'moli bo'yicha ma'lumotlarni tizimli tahlil qilib boradi hamda ushbu resurslardan ajratilgan limitlar doirasida foydalanishni nazorat qiladi va ulardan samarali foydalanish choralarini ko'radi.

Fermer xo'jaliklarining suv resurslaridan foydalanish sohasida ekologik nazorat tizimida jamoat ekologik nazorati ham muhim ahamiyat kasb etadi.

"Bugungi kunda jamoatchilikning ekologik muammolarga bo'lgan qiziqlishi va qayg'u-rishi ortib borayotgani, ular aholi orasida ekologik tafakkurni shakllantirish hamda tabiatni muhofaza qilish borasida davlat muassasalari bilan faol hamkorlik qilmoqda" [6].

"Jamoatchilik nazorati inson omili bilan chambarchas bog'liqdir. Jamoat nazoratida inson ikkita maqomda mujassam bo'ladi: birinchisi – mustaqil yoki jamoaga birlashib nazorat olib boruvchi; ikkinchisi – nazorat "mevalarini iste'mol qiluvchi", ya'ni ma'lum natijalardan bahramand bo'luychi.

Jamoatchilik nazorati rivojlanayotgan fuqarolik jamiyatining benazir demokratik qadriyati sifatida davlat tomonidan tan-

olinib, unga konstitutsiyaviy maqom berildi va "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi" [7].

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, «jamoat ekologiya nazorati – bu qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish, sog'liq va mulkka yetkazilgan zararni qoplatish, ekologik axborotlarni talab qilib olish va qonun hujjalarda mustahkamlangan boshqa ekologik huquqlarni o'zida qamrab olgan hamda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan qonun hujjalarning ijro etilishini keng jamoatchilik tomonidan nazorat qilinishini kafolatlaydigan fuqarolar va jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan ekologik nazorat turi hisoblanadi» [2].

"Jamoatchilik nazorati" tushunchasi davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyati qonuniyligi uning ijtimoiy manfaatlarga muvofiqligi yuzasidan kuzatuvalr olib borish, tahlil qilish va baholashga oid faoliyatni anglatadi» [8].

"Jamoat ekologik nazorati atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'z yuridik tabiatni, tavsiyaviy xususiyati, subyektlar doirasi va boshqa xususiyatlariga ko'ra, ekologik nazoratning boshqa turlaridan farqlanadi" [9].

Ta'kidlash lozimki, qonunchilikda jamoat ekologiya nazoratini amalga oshirishga oid umumiylusdagi qoidalar belgilangan bo'lib, amaldagi qonunchiligmizda jamoat ekologiya nazoratini amalga oshirish tartibi va shartlarini aniq belgilab beruvchi alohida qonunchilik hujjati ishlab chiqish va qabul qilish lozim. Fermer xo'jaliklarining suv resurslaridan foydalanish sohasida jamoat ekologik nazoratini amalga oshirishda suv iste'molchilar uyushmalari o'ziga xos ahamiyatga ega.

### Xulosalar

Ya'ni, guvohi bo'lganimizdek, suvdan foydalanish sohasida ekologiya nazoratining o'zi-

ga xos jihat shundaki, unda suv iste'molchilar uyushmalarining bevosita ishtiroki nazarda tutilgan. Suv iste'molchilar uyushmalar no davlat notijorat tashkilot sifatida bir tarafdan jamoatchilik nazoratini ta'minlasa, boshqa tarafdan ushbu sohada bir qator chekllovchi ta'sir choralarini qo'llay oladi. Xususan, suv olish limitlari suv iste'molchilar uyushmalar, shuningdek, boshqa suvdan foydalanuvchilar va suv iste'molchilariga – tuman ahamiyatiga ega bo'lgan suv obyektlaridan manbalar, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tumanlar (Termiz shahri) irrigatsiya bo'limlari tomonidan belgilansa, fermer va dehqon xo'jaliklari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ular xizmat ko'rsatadigan zona da joylashgan boshqa suv iste'molchilariga suv iste'molchilar uyushmalar tomonidan belgilanadi. Bu ham ushbu sohadagi jamoatchilik ekologik nazoratining o'ziga xos xususiyatlari dan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda parlamentning nazorat tahlil faoliyati kuchayib borayotgani hamda boshqa tarafdan suv resurslaridan qishloq xo'jaligida oqilona foydalanish agrar siyosatning ustuvor yo'naliishlaridan biriga aylanib borayotganini inobatga olib, Oliy Majlis Senatida O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligi vazirining suv xo'jaligini modernizatsiya qilish va rivojlantirish, suv resurslarini boshqarish, suvdan tejamkorlik bilan foydalanish borasidagi ishlar ning holati to'g'risidagi axborotini yiliga ikki marta eshitish tartibini belgilash maqsadga muvofiq. Shu maqsadda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Reglamenti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 32<sup>1</sup>-moddasiga tegishli tuzatish kiritish lozim.

Xulosa qilib aytganda, ekologik nazorat yurtimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholi salomatligini muhofaza qilish, atrof muhit va ona tabiatimizni asrab-avaylashdek ulkan vazifani keng jamoatchilik va boshqa mas'ul davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikda bajarishga xizmat qiladi.

## REFERENCES

1. Mamasiddiqov MM, Otajonov A.A. et al. Development and improvement of mechanisms for establishing effective public control over the activities of government agencies in our country. Responsible ed. M.M. Mamasiddiqov. Tashkent, Lesson press, 2020, 278 p.
2. Utegenov O.D. Legal regulation of public environmental control. Tashkent, 2010.
3. Mirzaabdullayeva M.R. Qishloq xo'jaligida yer nazorati: qonun va amaliyot [Land control in agriculture: law and practice]. Tashkent, TSUL, 2020, p. 88.
4. Erofeev B.V. Ecological law. 2<sup>nd</sup> edition, revised and enlarged. Moscow, Yurist, 2001, p. 61.
5. Doljenko V.A. Gosudarstvennyi kontrol za ispolzovaniem i ohranoy vodnyh obektov: problemy teorii i sudebnoy praktiki [State control over the use and protection of water bodies: problems of theory and judicial practice]. *Historical, philosophical, political and legal sciences, cultural studies and art criticism*, 2011, no. 7 (13), pp. 73-75.
6. Narzullaev O.Kh. On ensuring the priority of legislation in the field of ecology. Problems of improving the mechanism of application of environmental legislation. Proceedings of the scientific-practical conference. Tashkent, TSIL, 2007, p. 135.
7. Juraev Y.A., Ikramov R.A. Ecological control of citizens: legal bases and concepts. *Academic research in educational sciences*, 2020, no. 1 (4), p. 301.
8. Constitutional law. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2014, p. 219.
9. Utegenov O.D. The concept and peculiarities of public environmental control. *Vestnik Karakalpakskogo gosudarstvennogo universiteta imeni Berdakha - Bulletin of Karakalpak State University named after Berdakh*, 2016, no. 33 (4), p. 94.
10. Shofiev Z. Types of right to selfemployment in the water resources of farmer farms. *Eurasian Research Bulletin*, 2022, no. 7, pp. 196-199. Available at: <https://www.geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/1299/>.
11. Kulikova A. (2021). Specifics of the legal regulation of environmental management in agriculture. E3S Web of Conferences, 2021, no. 273 (50), p. 08027. DOI: 10.1051/e3sconf/202127308027/.
12. Ruhl J.B. Farms, Their Environmental Harms, and Environmental Law. *Ecology Law Quarterly*, 2000, vol. 27, no. 2, pp. 263-349. JSTOR. Available at: <http://www.jstor.org/stable/24113926/>.
13. Hirji R., Ibrekk H.O. Environmental and Water Resources Management. *Environment Strategy Papers*, 2001, October, no. 2. Available at: <http://web.worldbank.org/archive/website00672/WEB/PDF/ESP2WATE.PDF/>.
14. Le Moigne G. et al. A Guide to the Formulation of Water Resources Strategy. *Technical Paper*, 1994, no. 263. Washington, D.C. World Bank.

# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

3 / 2022

**BOSH MUHARRIR:**  
**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**  
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,  
y.f.d., dotsent

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**  
**Ikrom Ergashev**  
Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha  
falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinosari

**Mas'ul muharrir:** D. Xudoynazarov  
**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,  
Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova  
**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**  
100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.  
**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.  
**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Web-sayt:** [www.tsul.uz](http://www.tsul.uz)  
**E-mail:** [lawjournal@tsul.uz](mailto:lawjournal@tsul.uz)  
**E-mail:** [tn.tdyu@mail.ru](mailto:tn.tdyu@mail.ru)  
**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 19.07.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.  
Qog'oz bichimi: A4. Shartli 23,28 b.t. Adadi: 100.  
Buyurtma raqami: 47.  
TDYU tipografiyasida chop etildi.